XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 12-mart VII-5-37-5-70-K/25 Konimex tumani

Tumandagi geografik obyektlarni nomlash toʻgʻrisida

“Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi 35-son yigʻilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2024-yil 16-dekabrdagi 03/08-12074-sonli xati hamda 05-19-01-5848-sonli xulosasiga asoslanib, xalq deputatlari Konimex tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash toʻgʻrisidagi takliflarni davlat ekspertizasidan oʻtkazish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2024-yil 16-dekabrdagi 03/08-12074-sonli xati hamda 05-19-01-5848-sonli geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash toʻgʻrisidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi xulosasi ma’qullansin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash toʻgʻrisidagi takliflarni davlat ekspertizasidan oʻtkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 16-dekabrdagi 05-19-01-5848-sonli ekspert xulosasiga asosan Konimex tumanidagi nomsiz qabriston va istirohat bogʻi ilovaga muvofiq nomlansin.

3. Tuman hokimi oʻrinbosarlari (A.Otakulov, M.Tulegenov) tuman statistika boʻlimi (J.Qurbanbayev), Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Konimex tumani filiali (Z.Karimov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (B.Abduvaitov), Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi (S.Risbekov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻlimi (R.Raxmatov)ga mazkur qaror bilan nomlanayotgan qabriston va istirohat bogʻi nomini belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazish hamda hisobotlarga oʻzgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A. Nematov) , “Kenimex tani” gazetasi tahririyati (N.Kalmanbetova) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tavsiya etilsin.

5. Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari A.Otakulov, M.Tulegenov hamda xalq deputatlari Konimex tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi E.Janxujayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi RO‘ZIYEV RUSLAN NASIROVICH

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2025-yil 12-martdagi
VII-5-37-5-70-K/25 -son qaroriga
1-ilova

ilova

Konimex tumanidagi nomsiz geografik obyektlar
RO‘YXATI

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Izoh**
1.	Qabriston	Uchtepa OFY	Nomsiz	Yuqori Jalauli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Istirohat bogʻi	Doʻstlik MFY	Nomsiz	Yoshlar bogʻi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq